



**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



2023- YILDA BUXORO VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


Buxoro viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.


Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda bularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.

2023- yilda turistik firma va tashkilotlarning asosiy ko'rsatkichlari




Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar, ming kishi




2023- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari



Turistik firma va tashkilotlarining hududlar bo'yicha soni, birl.



2023- yilda qabul qilinganlar soni, ming kishi




2023- yilda jo'natilganlar soni, ming kishi



2023- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari qiymati, mln so'm



Turistik firma va tashkilotlar xodimlari, kishi



Jami 137 , ulardan:

78,1 %
erkaklar




21,9 %
ayollar

Viloyat bo'yicha sotilgan sayyohlik yo'llanmalari qiymati, mln so'm



2023- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar, birlik




Xonalar

3819 ta nomerlar
8091 ta o'rinlar

Tunab qolishlar soni


257,7 ming birlik



2023- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarda shaxslarni joylashtirish

2023- yil davomida mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarga **482,5 ming** kishi joylashtirildi, ulardan **33,0 %** i O'zbekiston fuqarolari, **24,8 %** i MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va **42,2 %** i xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.


Joylashtirilgan shaxslar soni



O'zbekiston fuqarolari	159,1 ming kishi
MDH mamlakatlari fuqarolari	119,6 ming kishi
Xorijiy mamlakatlar fuqarolari	203,9 ming kishi

2023- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **178,2 ming** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **46,2 ming** kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadda, **3,3 ming** nafari do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, **8,7 ming** nafari ziyorat qilish maqsadida, **2,3 ming** nafari davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, **10,5 ming** nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelgan.


Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



2023- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarida xodimlar, kishi

Jami 1120 ulardan:

59,6 %
erkaklar



40,4 % ayollar



mehmonxona ma'murlari

289

menejerlar

159

oqsochlar

322

restoran va bar
xodimlari

149

Turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o‘z ichiga oladi. Chiqish turizmi ko‘rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Turist – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan o‘n ikki oygacha bo‘lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, yoki kamida ma‘lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs.

Mehmon (ziyoratchi) – boshqa davlatga o‘z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko‘zlab kelgan shaxs.

Do‘stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do‘stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to‘ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g‘amxo‘rlik va boshqalar.

Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to‘lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o‘quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma‘lum ko‘nikmalarga ega bo‘lish, jumladan, pullik o‘qish, til o‘rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta‘tillar va hokazolar kiradi.

Davolanish va sog‘lomlashtirish muolajalari – ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriyalardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek, tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

Ishga doir va kasbiy maqsadlar – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda resident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo‘lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.



**Press-relizlarni tayyorlash uchun mas'ul:
Buxoro viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Buxoro viloyati statistika
boshqarmasi**



**Manzil: Buxoro shahri S.Ayniy
ko'chasi 3-uy**



Tel: +99865 223-81-65



**e-mail:
cots1706@stat.uz**



www.buxstat.uz



facebook.com/uzstataxborot

